



# Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda HALOL MEHNATNING HAQQONIY BAHOSI

**Bugun O‘zbekistonda barcha sohaga raqamli texnologiyalarni keng tatbiq qilish, biznes va aholi uchun yanada qulaylik yaratish bilan bir qatorda davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.**

Mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatida faoliyat samaradorligini baholashga Prezidentimizning 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan start berilgan edi.

Soliq organlari KPI amaliyotini birinchilardan joriy etgan va mevasini ko‘rayotgan sohalaridan biri, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

## KPI poydevorini raqamli transformatsiya yaratib berdi

Keyingi yillarda barcha soha va tarmoqlarda kechayotgan tub yangilanishlar qatori soliq islohotlari boshlangan paytda davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri sohani raqamlashtirish orqali soliq organlarini zamonaviy xizmat ko‘rsatuvchi idoraga transformatsiya qilish edi.

Buning uchun Prezidentimizning 2022-yil 24-martdagi “Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida Jahon banki loyihasi doirasida eng zamonaviy ma’lumotlarni qayta ishlash markazi qurildi.

Aholi va biznes uchun qulayliklarni ko‘paytirish, inson aralashuvini kamaytirish, soliq ma’murchiligini yaxshilash va yashirin iqtisodiyotni jilovlashga qaratilgan yangi dasturiy mahsulotlar ishga tushirildi va ularning soni 74 taga yetdi. Interaktiv xizmatlar va servislar soni 80 dan, mobil foydalanuvchilar soni 10,5 milliondan oshdi.

Idoralararo hamkorlik doirasida o‘zaro elektron axborot almashish yo‘lga qo‘yilgan vazirlik va tashkilotlar soni 60 taga, integratsiya yo‘nalishlari soni 238 taga yetkazildi.

Natijada eng muhim tub burilish — soliq organlari tadbirkorlar yelkasidan soliqlarni hisoblashni oldi. Shu bois, bugun biznes vakillarining ertaga nima bo‘lar ekan, degan qo‘rquvi yo‘q. Yer, mol-mulk soliqlari to‘liq — 100 foiz, qo‘shilgan qiymat solig‘i 88 foiz, aylanmadan olinadigan soliq (AOS) hisoboti 81,3 foiz avtomatik ravishda shakllanayapti.

Har bir tadbirkor, fuqaro oddiy telefoni orqali “Soliq” mobil ilovasidan foydalanib, dunyoning qaysi burchagida bo‘lishidan qat’i nazar, 24/7 rejimida istalgan savoliga javob



**Sherzod KUDBIYEV, Soliq qo‘mitasi raisi**

olishi, majburiyatini bajarishi, rahbar yoki ta’sischi butun boshli biznesi buxgalteriyasi qanday ishlayotganini kuzatib borishi, qonuniy ishlayotgan biznes hamkorlarni tanlashi mumkin.

Endi soliq organi yopiq, kimni tekshirishni o‘zi hal qiladigan oldingi tizim emas. Tadbirkoming xatosini topib, uni darhol jazolovchi emas, aniqlangan xato va kamchiliklarni avval soliq

Xususan, “YandexGo”, “Uklon”, “My taxi”, “Biznes taxi”, “GeoGo”, “Taxi OK”, va boshqa agregatorlar xizmatidan 2025-yilning o‘tgan 3 oyida 353 mingga yaqin (2,3 mingdan ortiq ayol) o‘zini o‘zi band qilgan shaxs foydalanган bo‘lib, ushbu davrda 1,9 trillion so‘mlik 106,8 millionta tashuv bo‘yicha chek rasmiylashtirilgan. Ushbu agregatorlar tomonidan 2025-yilning 1 choragida



**Aholi va biznes uchun qulayliklarni ko‘paytirish, inson aralashuvini kamaytirish, soliq ma’murchiligini yaxshilash va yashirin iqtisodiyotni jilovlashga qaratilgan yangi dasturiy mahsulotlar ishga tushirildi va ularning soni 74 taga yetdi. Interaktiv xizmatlar va servislar soni 80 dan, mobil foydalanuvchilar soni 10,5 milliondan oshdi.**

to‘lovchining o‘ziga tushuntirish va kamchiligini ixtiyoriy tuzatish imkonini beradigan tashkilotga aylandi. Birgina 2024-yilda 76,4 mingta subyekti ixtiyoriy ravishda qayta hisobot taqdim etib, unga ko‘ra soliq hisobotlarida 12,6 trillion so‘mlik soliq bazasi aks etdi. Natijada ushbu tadbirkorlarga nisbatan 2,5 trillion so‘mlik moliyaviy jarima qo‘llanishining oldi olindi.

Yana bir muhim jihat. Raqamli texnologiyalardan foydalanish yashirin iqtisodiyotni soyadan chiqarish platformasiga aylanib, teng raqobat muhitini shakllantirish imkonini bermoqda.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, mustaqil faoliyat yuritib kelayotgan 4,4 million (2025-yil birinchi chorakda 5 million)dan ortiq fuqaro o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida mehnat qilishning qonuniy yo‘liga o‘tdi.

Birgina yengil avtomobilda yo‘lovchi tashish faoliyatining o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faoliyat turlari ro‘yxatiga kiritilishi natijasida ilgari yashirin ishlagan 602,6 mingga yaqin taksi xizmati legallashtirildi.

70,4 milliard so‘m (shundan 37,5 milliard so‘mi QQS) soliq to‘langan. Vaholanki, ushbu soha vakillari 2023-yilda deyarli soliq to‘lamagan.

Shuningdek, sohaning raqamlashtirilishi Meta, Google, Apple, Amazon, Netflix, Booking.com kabi 63 ta yirik kompaniyaning O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tishiga sharoit yaratdi. Bu 2024-yilda 115,8 milliard so‘m soliq to‘lash yoki 2023-yilga nisbatan tushumning 1,5 barobar o‘shishiga xizmat qildi.

Bundan tashqari, mamlakatimizdagi ijtimoiy siyosatni qo‘llab-quvvatlash borasida himoyaga muhtoj aholiga qator oziq-ovqat mahsulotlari xaridida QQS qaytarish bo‘yicha “Ijtimoiy keshbek” hamda iste’moldan o‘rtirilgan elektr energiyasi bo‘yicha “Quyoshli xonadon” xizmatlari orqali to‘lov tranzaksiyalari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2024-yilda “Quyoshli xonadon” xizmati orqali 10,8 ming foydalanuvchiga 12,2 milliard so‘m, “Ijtimoiy keshbek” xizmati orqali 142 mingta foydalanuvchiga 26,1 milliard so‘m to‘lab berildi.

Shuningdek, bozor ishtirokchilariga teng va shaffof raqobat muhitini yaratish hamda noqonuniy savdoning oldini olish, aholining sog‘lig‘ini saqlash, epidemiologik holatni boshqarishda foydalanish mumkin bo‘lgan har bir dori vositasi harakatini zanjirli tarzda kuzatish imkoniyatiga ega “Aylanma monitoring tizimi” kompleksi ishga tushirildi.

2024-yilda aholi tomonidan doriga 19,7 trillion so‘m sarflangan bo‘lib, aholi jon boshiga Toshkent shahrida — 1,7 million so‘m, Buxoroda — 746 ming so‘m, Samarqandda — 660,7 ming so‘mdan to‘g‘ri kelgan.

Eng ko‘p sotilgan dori vositalari quyidagi kasalliklarga to‘g‘ri kelgan: birinchisi — yurak-qon tomir, ikkinchisi — yuqumli kasalliklar,

organlarining faoliyati korxonabay tashkil etildi.

Soliq xizmati organi rahbar va xodimlarining mehnat faoliyati har bir yo‘nalishda 25 tagacha KPI ko‘rsatkichlaridan iborat umumiy 100 ballik tizimda baholalanadi va baholash natijalari har oy yakuni bilan Soliq qo‘mitasi rahbariyati tomonidan ko‘rib chiqilmoqda.

“Barcha tuzilmalar xodimlari faoliyatini baholash” axborot tizimi joriy etilib, hududiy soliq xizmati organlari rahbarlarining faoliyati ham baholab borilmoqda.

Mazkur tizimning mutlaqo shaffof va adolatlilik ekani shundaki, har bir xodim onlayn rejimda kim qanday ishlagani, qancha ball to‘plagan, kimdan o‘mak olib, qanday marraga intilish kerakligini kuzatib boradi.

## Yangi tizim qanday samara berdi?

Iqtisodiyotdagi ijobiy o‘zgarishlar qatori KPI tizimi orqali mahallabay va korxonabay ishlash tufayli 2024-yilda davlat byudjetiga 199,5 trillion so‘m tushirilib, 2023-yilga nisbatan 33,5 trillion so‘m ko‘p yoki 20,2 foiz o‘shishga erishildi.

Ushbu o‘shish joriy yilda ham davom ettirilib, 2025-yil 1 chorakda 48,2 trillion so‘m tushirildi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 20 foiz (7,9 trillion so‘m), hududlarda esa 25 foiz o‘shishga erishilganidan dalolat.

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha 26,6 trillion so‘m tushirilib, tushum o‘tgan yilga nisbatan (Navoiy va Olmaliq KMKdan tashqari) 22,7 foiz (3,4 trillion so‘m) o‘tdi.

Tushumlardan tashqari o‘tgan yili vaqtincha moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan 64,5 mingta tadbirkorlik subyekti bilan alohida ishlash, muammolari hal etilishida yordam berilishi natijasida ular faoliyati tiklandi.

129,3 mingta yangi dehqon xo‘jaligi ro‘yxatdan o‘tkazildi, o‘zini o‘zi band qilgan 8,7 ming shaxs faoliyatini kengaytirib, YTTga aylandi, 947 YTTning faoliyati esa yuridik shaxs sifatida yiriklashtirildi.

Joriy yil boshiga nisbatan mahallalar kesimida kichik tadbirkorlar hisobiga ishchi sonining 41,4 mingtaga oshishiga erishildi. Ularning tovar aylanmasi 1 chorakda 15,7 trillion so‘mni tashkil etgan holda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 trillion so‘m (129,3 foiz) oshgani kuzatildi.

Xodimlarning samaradorlik ko‘rsatkichi, erishilgan natijalar va mavjud kamchiliklar Soliq qo‘mitasining hay‘at yig‘ilishlarida muhokama qilib boriladi. Halol va fidokorona ishlash, ishini samarali tashkil qilgan va KPI ko‘rsatkichi yuqori xodimlar belgilangan tartibda rag‘batlantirilmoqda. Qo‘mita rahbariyati nomidan ularning ota-onasiga tashakkurnoma yuboriladi.

Salbiy natija ko‘rsatgan xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligi asosida choralar

belgilanadi. Shuningdek, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ko‘riladi.

Joriy yilning o‘tgan 3 oyida ijobiy natijaga erishgan 5530 xodim moddiy rag‘batlantirildi. Shu bilan birga, past natija ko‘rsatgan 949 xodimning mas’uliyati mehnat qonunchiligi asosida ko‘rib chiqildi.

## Islohotlarning xalqaro e’tirofi

Yana bir muhim yo‘nalish sifatida KPI tizimi orqali erishgan ko‘rsatkichlarimizni boshqa mamlakatlardagi holat bilan solishtirib boryapmiz va ularning yutuqlarini faoliyatimizda joriy etishga e’tibor qaratyapmiz.

Jumladan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi doimiy eksperti bilan hamkorlikda soliq ma’murchiligi bo‘yicha bugun oldingi o‘rinlardagi, o‘rta va past darajadagi 20 ta davlat tanlab olingan.

Niderlandiya, Fransiya, Germaniya, Avstriya, Italiya, Polsha, Belgiya kabi soliq ma’murchiligi ilg‘or davlatlar bilan birga aholisi, yer maydoni, ayrim ko‘rsatkichlari o‘xshash boshqa o‘nlab davlatlar saralandi.

Xususan, YIMga nisbatan soliq organining 1000 nafar xodimiga to‘g‘ri keladigan tushumlar ulushi bidda 1,4 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich solishtirilgan 20 ta davlatning 14 tasidan yuqori (6-o‘rinda).

Har bir xodimning ish haqi uchun sarflangan 1 dollar davlatga 178,2 dollar daromad keltirgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a’zo mamlakatlarda davlat daromadining o‘rtacha 62 foizi soliq ma’murchiligi tushumi orqali shakllanayotgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 72 foizni tashkil etmoqda.

Soliq organlaridagi raqamlashtirish jarayoni natijalari nafaqat yurtimizda (“Soliq” mobil ilovasi 2 yildan buyon yil brendi mukofotiga loyiq qo‘rilmoqda), balki xalqaro moliya institutlari tomonidan ham e’tirof etilmoqda. Avvallari bir chet elga borib o‘rgangan bo‘lsak, endi yurtimizga kelib, bizdan o‘rganishyapti.

Jumladan, birgina 2024-yilda o‘tkazilgan 2 ta xalqaro tadbirda boshqa davlatlardan kelgan hamkasblarimiz, moliya-iqtisodiyot sohasi vakillari aynan bizning tajribamizni o‘rgandil.

Xususan, 2024-yil 28-fevral kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan XVI “Ipak yo‘li” soliq forumida qatnashgan mehmonlar O‘zbekistonning soliq sohasini raqamlashtirish tajribasini o‘rganib ketdi. Shuningdek, 28-30-may kunlari Xalqaro valyuta jamg‘armasi Kavkaz, Markaziy Osiyo va Mo‘g‘uliston mintaqalarida salohiyatini oshirish markazi bilan hamkorlikda “Soliq ma’muriyatchiligi: Raqamli asrda soliq qonunchiligiga rioya qilinishini yaxshilash” mavzusida Samarqand shahrida o‘tkazilgan xalqaro seminar ham ayni yo‘nalishdagi tajribamiz tadbirining asosiy mavzusi bo‘ldi.

KPI tizimi soliq organlari faoliyatida har bir xodimning o‘zini o‘zi nazorat qilishini ta’minlaydigan, natijadorlikka qaratilgan samarali instrument ekanini amaliyotda isbotladi. Uni yanada takomillashtirish, yangi mezonlarni joriy etish, ayniqsa, tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmat turlarini ko‘paytirishga e’tibor qaratamiz.

Bu tizim, o‘z navbatida, joriy yilda ham davlat byudjetiga 224 trillion so‘m (prognoz ko‘rsatkichlarga ko‘ra) hamda 15 trillion so‘m qo‘shimcha daromad tushirishimizni kafolatlaydi.



## REGISTON MAYDONI DUNYONING ENG GO‘ZAL JOYI

**Mazkur xabar yurtdoshlarimiz ko‘nglidagi iftixor tuyg‘usini oshirdi. Zamonlar osha dunyo sivilizatsiyasi markazi bo‘lgan Samarqandga tarixiy shukuh, qudrat qaytganini his etdik.**

Tarixan shakllangan tushunchaga ko‘ra, Samarqanddan turib qaralganda, dunyo tarqoq emas, balki yaxlit va bo‘linmas bo‘lib ko‘rinishi yana bir karra tasdiq‘ini topdi. “Samarqand ruhi” degan noyob fenomen dunyo ahlini egzuglik sari chorlay boshladi.

Gap shundaki, “TimeOut” jurnali Samarqanddagi ushbu tarixiy maydonni dunyoning 44 ta eng go‘zal joyi ro‘yxatiga kiritdi. Bosh idorasi Londonda joylashgan “TimeOut” xalqaro kompaniyasi jahonning 60 ta shahridagi ko‘ngilochar va madaniy hayotga bag‘ishlangan shu nomdagi haftalik jurnalni chop etadi.

Yaqinda nashr dunyoning turli burchagida yashaydigan tajribali sayyohlarning fikr-mulohazalarini jamlab, eng go‘zal maskanlar haqidagi hikoyalarni tahlil qildi. Natijada sayyoramizning eng hayratlanarli joylaridan iborat ro‘yxat shakllandi.

Samarqandga kelgan va Registon maydonida bo‘lib, hayratini yashira olmagan sayohatchilar bildigan quymadagi fikrlar o‘ziga xos:

“Uchta monadial inshoot bilan o‘ralgan keng maydon — Registon Samarqandning qadimiy yuragi, zamonaviy O‘zbekistondagi Ipak yo‘li shahrining timsoli...

**Nodir QOBILJONOV, jurnalist**

# ANDIJON “HAVO DARVOZA”SI MINTAQA XABI BO‘LADI

**Jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadigan omillardan biri bunyodkorlik ishlarini yaratuvchanlik va ezgu maqsadlar sari safarbar etishdir. Yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlar zamirida ham aynan mana shu maqsadlar jo etilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.**

Buni yurtimizning sharqiy darvozasi bo‘lgan Andijon viloyati misolida ko‘rib o‘tsak. Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrifi aynan modernizatsiya jarayonlarining birinchi bosqichi tugagan “havo darvozasi”dan boshlangani ham bejiz emas. Boisi, 1956-yilda qurilgan bu havo portining infratuzilmasi yaqin yillargacha og‘ir ahvolda edi.

Ta’mingacha soatiga 200 yo‘lovchiga xizmat qilgan, parovozlar esa yiliga 500 tani tashkil etgan, xolos. Umumiy yo‘lovchilar soni yiliga 60 mingga ham yetmagan. Bu, o‘z navbatida, viloyatning iqtisodiy o‘shishiga to‘siq bo‘lib turgandi. Hozir viloyatda investorlar qiziqishini pasaytirib, sayyohlar oqimini kamaytirardi. Oqibatda katta imkoniyat va salohiyatga ega Andijonda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari past edi.

Andijon xalqaro aeroportida 1978-yilda qurilgan uchish-qo‘nish yo‘lagi qoniqarsiz holatga kelgani uchun 2023-yil 1-apreldan rekonstruksiya ishlari boshlangandi.

Qurilish-montaj ishlarining birinchi bosqichida aeroportning uzunligi 3300 metr, kengligi 60 metr uchish-qo‘nish yo‘lagi, samolyotlarning to‘xtash yo‘lagi qurib bitkazildi. Qurilish tugallanganidan so‘ng bu imkoniyatlar yana ham oshadi.

Joriy yil 20-martdan Andijon xalqaro aeroportida parovozlar qayta tiklandi. Hozir Toshkent — Andijon yo‘nalishida haftasiga 2-marta parovozlar amalga oshirilmoqda, iyundan boshlab esa parovozlar soni 4 taga yetkaziladi.

Aeroport rekonstruksiya to‘liq yakunlangach, shu yil yakuniga qadar xalqaro parovozlar yo‘lga qo‘yiladi.

Endi o‘z-o‘zidan “Bu o‘zgarishlar viloyatga nima beradi?” degan tabiiy savol tug‘iladi.

Eng birinchi navbatda, xorijiy davlatlar bilan tez va qulay aloqalar ta’minlanadi. Bu jihat hozir juda zarur. Chunki bugunning investori ham, sayyohi ham o‘ziga qulay hududni



**Jasurbek CHORIYEV, transport vaziri o‘rinbosari**

tanlaydi. Shu bois, aeroportdagi bunyodkorlik ishlari transport qulayligi, iqtisodiy o‘shish, investitsiyalarni jalb qilish imkonini yaratadi. Jumladan, xorijlik sayyohlar kelishi ko‘payib, turizm sohasi o‘sadi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratishga zamin bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, bu aeroport nafaqat viloyat, balki yurtimizning ham ko‘rki bo‘lishiga hech shubha yo‘q. Zero, havo qo‘nalg‘alari nainki millionlab zamondoshlarimiz uchun ochiluvchi darvozalar, balki o‘ziga xos zamonaviy me’moriy qiyofasi bilan sayohatchilarga yangi sarguzashtlar zavqini baxsh etuvchi manzillardir. Bunyodkorlik o‘rtidan minglab odamlarning ro‘zg‘origa qut-baraka kiradi.

Ha, bugun nafaqat Andijonda, balki boshqa hududlarda ham bu kabi ishlar shiddat bilan amalga oshirilmoqda. Birgina yaqin yillarda Samarqand, Termiz, Urganch, Shahrisabz, Mo‘ynoq, Zomin aeroportlari yangilanib, boshqalarida modernizatsiya jarayonlari davom etmoqda.

Xususan, Samarqand aeroportining me’moriy binosi “Ziji Ko‘rago‘niy” kitobiga muqoyasa tarzida barpo etilib, tomida yulduzlar turkumi tasviri tushirilgan osmon ko‘rinishi aks etdi.

Aeroport eng so‘nggi texnologiyalar bilan ta’minlangan. Bu yuklarni qabul qilish va jo‘natish, ro‘yxatdan o‘tish kabi xizmat ko‘rsatish jarayonlari qisqa muddatda va sifatli bajarilishiga zamin yaratmoqda. Kutish zalida yo‘lovchilar uchun zamonaviy qulayliklar yaratilgan. Bu yerdagi bolalar maydonchasi, tamaddi qilish va savdo nuqtalari ularga tunu kun xizmat ko‘rsatmoqda.

Umuman, mamlakatimizda fuqaro aviatsiyasi sohasini rivojlantirish borasidagi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad O‘zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyo, balki mintaqalarni bog‘laydigan havo xabiga aylantiradigan iborat.

Albatta, bugun yurtimiz uchun yangi bozorlarni ochildi va ularga arzon narxlarda mahsulot yetkazib berish maqsadida barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Prezidentimiz bu yo‘lida qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni, do‘stona munosabatlarni va transport sohasidagi loyihalarni tezroq, jadal va sifatli bajarish uchun alohida tashabbus bergan.

Qolaversa, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida, ayniqsa, transport-kommunikatsiya sohasida yaqin mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish orqali Markaziy Osiyodagi amaliy aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda qo‘shni mamlakatlar O‘zbekistonning transport-tranzit loyihalarini faol qo‘llab-quvvatlamog‘da. Ularning ro‘yobga chiqarilishi Markaziy Osiyoning Sharq — G‘arb va Shimol — Janub xalqaro yo‘laklari tranzit markazi sifatidagi jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan, Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston, O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston temir yo‘li liniyalarni qurish shular jumlasidan.

Ushbu loyihalar Markaziy Osiyo mamlakatlari Hind okeani portlariga eng qisqa chiqish yo‘llarini ta’minlab, Janubiy Osiyoni Markaziy Osiyo, Rossiya, Xitoy hamda Yevropa bozorlari bilan bog‘laydi. Ular Markaziy Osiyo mamlakatlarining tranzit salohiyatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Boshlanishi 1-betda

Shunda men o‘layman: yeri kam bo‘lgan, tabiiy imkoniyat cheklangan andijonliklar eplaydi-ku, boshqalar ham uddalasa bo‘ladi. Aslida, ular ham O‘zbekistonning andijonliklarga teng fuqarolari-ku... Odam bolasi istasa, qilarkan-ku!

Rivojlanish uchun kurash ayni yo‘qchilik kelganda boshlanadi. Buni hayot ko‘rsatib turibdi. Inqirozdek tuyulgan holat aslida ochilmagan imkoniyat bo‘lishi mumkin. To‘g‘lik va farovonlik odamni komfort hududga kirgizadi, raqiblik hissiyotini o‘ldiradi. Andijon fenomeni esa aynan cheklangan, chegaralangan imkoniyatlar farovonlik uchun kurashish lozimligini ko‘rsatadi. Yo‘qchilik raqobat muhitini yuzaga keltiradi, kuchli bo‘lishga undaydi.

Ehtimol, bugun yuksak darajaga erishgan Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya, Yaponiya mo‘jizasi zamidra ham shunday amaliyot mujassamidir. O‘ta cheklangan tabiiy va yer resurslariga qaramay, bu mamlakatlar yuksak inson kapitali va tinimsiz mehnat evaziga dunyoni zabt etmoqda, “Osiyo yo‘lbarzlari” deb tan olingan.

Andijon viloyati iqtisodiyoti 2017-2024-yillarda 1,6 barobar o‘sgan. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, yalpi hududiy mahsulot qiymati 90,5 trillion so‘mga yetkazilib, 6,6 foiz oshgan. So‘nggi 8 yilda Andijondagi deyarli barcha soha bo‘yicha amalga oshirilgan trillion-trillion so‘mlik o‘zgarishlar zamidra ham shu falsafa yotibdi.

### Yangi Andijondan Bobur shahrigacha

Koronavirus pandemiyasi davri hamma qatori andijonliklar uchun ham oson kechmadi. Esimda: Xalqaro press-klubning “Masofada” loyihasi doirasida 2021-yili Yangi Andijon shahri qurilishiga tamal toshi qo‘yilganining guvohi va ishtirokchisi bo‘ldik. Hududi kichik bo‘lgan andijonliklar uchun O‘zbekiston Prezidenti yaxshi yechim topib berdi. Andijonda aholi zich yashaydi: Asaka tumanida 200 ming, Shahrixonada 330 ming, Andijonda esa 206 ming. Aholi ham yildan yilga ko‘payishdan to‘xtamayapti, Xudoga shukr. Shunda adirliklardan unumli foydalanadigan mamlakat, xususan, Turkiya tajribasi bizga qo‘l keldi.

Yangi kentning bebahoлиги shundaki, u bo‘m-bo‘sh adirlikda, qishloq xo‘jaligida foydalanilmagan 4 ming gektar maydonda osmonga bo‘y cho‘zmoqda. Haligacha yodimda: bor-yo‘g‘i 4 yil avval Prezidentimiz borganida tap-taqir adir edi. Vaqti kelib bu yerda shuncha bunyodkorlik ishlari bo‘lishiga inson ishonishi qiyin edi. O‘shanda turnagor terilgan qudratli texnikalar vodiyni shovqini bilan larzaga solgandi.

Qurilish 8 bosqichda rejalashtirilgan bo‘lib, hozir 1770 xonadonli 63 ta turar joy foydalanishga topshirildi. Yangi maktab, bolalar bog‘chasi, poliklinika qurilgan, tayyor xonadonlarning ko‘piga oilalar ko‘chib o‘tgan. Bu yil yana 40 ta ko‘p qavatli uy quriladi. Barchasi, tabiiyki, elektr energiyasi, gaz, suv, issiqlik bilan ta‘minlanadi. Yangi O‘zbekiston bog‘ida Zahiriddin Muhammad Bobur haykali o‘rnatiladi.

### Bobur oldidagi qarzimiz ado etilishi

Buyuk Bobur bobomiz haqida alohida to‘xtalsam. Biz maktabda o‘qigan paytlarda u haqida deyarli hech narsa aytilmagan. Qarangi, yoshim 45 ga chiqqanda Pirmiqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanini o‘qib tugatdim. Shundan so‘ng 47 yoshda umri yakun topgan Boburning mushkul hayot yo‘li xuddi kinotasmadek ko‘z oldimdan o‘tdi. Xo‘sh, biz dunyo tarixida, insoniyat tamadduni bitiklarida yorqin iz qoldirgan Boburdek yirik shaxsning, parcha-parcha bo‘lgan hududni birlashtirgan buyuk saltanat asoschisining hurmatini joyiga qo‘yyapmizmi?! Shu paytgacha nega o‘zimizga bu savollarni bermadik?

O‘zbekiston xaritasida aynan Bobur shahrining paydo bo‘lishi 6 asrdan beri tiklanishini kutayotgan adolat oldida ta‘zim qilishdir. Yangi shaharga nomi qo‘yilishi bilan qilgan ishlari va ulug‘vorligi bo‘yicha Amir Temurdan kam bo‘lmagan Bobur siymosi abadiylashtirildi. Prezidentimiz ta‘biri bilan



## Yangi O‘zbekiston ruhi

# BUGUN BOBURNING ARMONI YO‘Q

## U TAVALLUD TOPGAN ANDIJON VODIY GAVHARI SIFATIDA ENG ZAMONAVIY SHAHARGA AYLANDI



Sherzodxon QUDRATXO‘JA, siyosiy fanlar doktori, professor

aytganda, hazrati Bobur shunday ulug‘ zotki, uning sharafiga nafaqat ko‘cha va maydonlar, balki alohida shahar bunyod etsak, albatta, arziydi.

Shubilanbirga, davlatimiz rahbari aytganidek, Bobur shahri milliy qadriyatlarimizni o‘zida mujassam etadigan ma‘naviy maskanga, ta‘lim va ilm-fan shahriga, yoshlarimiz uchun ilhom va ibrat, parvoz maydoniga, nafaqat vodi, balki mamlakatimizning turizm va madaniyat markaziga, “yashil infratuzilma” asosida qurilgan zamonaviy “smart-siti”ga — “aqli” shaharga aylantiriladi.

Podshoh Bobur shunday tarixiy shaxski, uni Atilla yo Elto‘g‘rul bilan taqqoslash mumkin. U barpo etgan saltanat 332-yil hukmronlik

qildi. Bugungi Hindiston dunyo iqtisodiyoti, siyosatida yetakchi o‘rinlarga ega. Bunda, albatta, boburiylar merosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bobur Mirzo Afg‘onistonning Hindikush tog‘laridan o‘tib, hind zaminiga qadam qo‘yganida bu ulkan hudud o‘zaro kelisholmaydigan, mayda nizolarga cho‘kkan, tinimsiz urush bilan mashg‘ul kichik rojaliklar o‘lkasi edi. Bobur va avlodlari o‘z siyosiy tafakkuri, harbiy kuchi va idroki ila buyuk boburiylar saltanatini barpo etdi. Agar Bobur bormasa, bu noahillik kim bilsin yana qancha davom etardi? Bugun esa butun subkontinentni egallagan yaxlit Hindiston gullab-yashnayapti, rivojlanayapti.

Agraaga ziyoratga borgan odam bugungi Hindistonning yorqin timsoliga aylangan Tojmahalni beixtiyor soatlab tomosha qiladi. Bobularimiz ta‘sirida turkiy, forsiy va hind arxitekturasini birlashtirib, ajib yangi hind arxitekturasini hosil bo‘lgan.

Shu mintaqada keng tarqalgan urdu tili yuksalishi va rivojlanishida ham boburiylarning hisssasi beqiyos. Ularning turli millatli armiyasi va saltanatida ushbu tildan foydalanilgani bundan dalolat beradi. Urdu tili hind, fors, arab, turkiy va turli mahalliy dialektlar uyg‘unlashuvidan paydo bo‘ldi.

### Yangi O‘zbekiston gavhari

Bobur shahrining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, ostida yer osti shaharchasi bor. Barcha kommunikatsiya undan o‘tgan, ya‘ni quvur teshilsa, asfaltini o‘yishga, yerni kovlashga zarurat bo‘lmaydi. Chilangarlar, santexniklar keng yerto‘lalarda bemalol velosipedda yurib



ta‘mirlaydi. O‘zim ham bu yer osti yo‘laklarida ancha yurganman.

Bugun yangi O‘zbekistonning yangi tarixi bitilmoqda. Prezidentimizning dastlabki yillardagi faoliyati davlatimiz hududlariga tahliiliy qarashdan iborat bo‘ldi. Har bir hududning rivojlanish konsepsiyasiga manzilli yondashildi. Mavjud muammolar tahili, har bir mintaqaning o‘sh nuqtalarini belgilandi. Ilk kundan aniq tashxislar qo‘yildi. Shu asosda bunyodkorlik ishlari boshlandi. Hududlarimizga qon kirdi. O‘sha paytdan boshlab mamlakatning infrastrukturasini takomillashtirilmoqda, nomarkazlashtirish jadal rivojlantirilmoqda. Har bir chekka hududga alohida yondashuv bilan qaralmoqda. Bu e‘tibor yangi ish joylari, yangi imkoniyatlar, yangi sharoitlarda aks etdi. Natijada butun mamlakat bo‘ylab yugurgan qaynoq energiya poytaxtga aks sadodek qaytib kelmoqda.

2016-yilgacha tushkun holatga tushgan, unutilayozgan Manas, Mo‘ynoq, Mirzacholga yangi hayot nafasi kirdi. Yangi O‘zbekistonning yangi islohotlari shabadasi kirib keldi. E‘tibor talab bo‘lib qolgan shaharlarning qayta tiklanishi, yangi bunyod etilayotgan shaharga Bobur nomi berilishi asnosida g‘arbu janubimizdagi hududlarimizda yangin kelajakda Temur, Ulug‘bek, Manguberd shaharlari barpo etilsa, ajabmas. Bunday yangi nomlar berilishi yaqin 40 yillik tariximizda bo‘lmaganini tan olish ham bir mardlik.

1991-yilda O‘zbekiston aholisi 20 million edi. Bugun esa xalqimiz 38 million atrofida. Aholi soni salkam ikki barobar oshdi. So‘nggi qirq yilda yangi shaharlar paydo bo‘ldi, deya maqtana olmaganimizni tan olish kerak. Faqat

2016-yildan so‘ng yangi ko‘chalarning, turar joy massivlari, mikrohududlar, tumanlar va shaharlar qurila boshladi. Yaqin yillarda tashkil etilgan Yangihayot, Yangi Toshkent, Davlatobod tumanlari, endigi Boburshahri Prezidentimizning to‘g‘ri o‘ylangan siyosati natijasi, yangi O‘zbekistonning yangi shaharlaridir.

Davlatimiz rahbari biror hududga hech qachon qurug‘ qo‘l bilan bormaydi. Andijonga bu galgi tashrif chog‘ida ham viloyatga davlat byudjetidan qo‘shimcha 1 trillion so‘m ajratilishi belgilandi. Bu mablag‘ bir tarafdan hududning yanada jadal rivojlanishi, yangi g‘oya va tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanishi, hozirgi o‘sh sur‘ati me‘yorda saqlab qolinishi uchun bo‘nak bo‘lsa, boshqa tarafdan, har bir hokim va rahbar xodimlar zimmasiga yuksak mas‘uliyat ham yuklaydi.

### Buyuk kelajakdan buyuk bo‘lishga intilish

Bugun Andijondagi yuqori o‘shish ko‘rsatkichi boshqa viloyatlarga ham namuna bo‘lishi kerak. Agar O‘zbekistonning 1 foiz hududida shuncha harakat, shuncha islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa, qolgan hududlarimizda qancha yaratuvchanlik, bunyodkorlik ishlari bajarishimiz mumkin! Kichkina hududning muammolari ham kichkina degani emas. Aksincha, kaftdek joyda bo‘lsa ham undagi masalalarni hal etish, Prezidentimizning yangi islohotlar siyosatini davom ettirish uchun tinimsiz mehnat qilish, kun-tun shu hudud dardi bilan yashash, gardanga otilgan mas‘uliyat o‘tida yonmoq kerak.

Ilgari “O‘zbekiston kelajagi — buyuk davlat”, deya shunday kelajak kelishini kutib yurardik. Bil‘aks, O‘zbekistonning buguni buyuk! Zero, bir foiz hududimizdagi bunyodkorlik ishlari shuncha bo‘lsa, butun O‘zbekistondagi yangi islohotlarni qanday mezon bilan o‘lchash mumkin?!

### Bjezinskiy adashgani rost bo‘lsin

Bunday o‘zgarishlar Farg‘ona vodiysining muhim go‘shasida amalga oshayotgani ikki karra muhim. Bu hududga yaqinlashgan Markaziy Osiyo mintaqasining muammoli nuqtasi sifatida qaralardi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadovning Andijonga safar taassurotlari haqidagi postidan iqtibos keltiramiz:

“1997-yilda o‘z davrining yirik geostrateglaridan biri bo‘lgan Zbignev Bjezinskiy o‘zining “Buyuk shaxmat taxtasi” kitobida Farg‘ona vodiysining geosiyosiy keskinlik o‘chog‘iga aylanishini bashorat qilgan, ayrim ekspertlar esa hatto “porox bochkasi”ga o‘xshatgan edi. Darhaqiqat, uchta mustaqil mamlakatga daxldor bu qadimiy hududda yaqin-yaqinlashgan shunday voqealar ro‘y berdiki, ko‘pchilik bu mash‘um bashorat haqiqatdan unchalik ham yiroq emasligiga ishongandi.

Ammo bugun biz butunlay boshqacha voqelikda yashamoqdamiz. Prezident Shaykat Mirziyoyevning uzoqni ko‘ra biladigan rahbarligi, tizimli va chuqur o‘ylangan islohotlari tufayli Farg‘ona vodiysining uchta viloyati va uning yuragi bo‘lmish Andijon butunlay o‘zgarib ketdi.

Bugun Andijon iqtisodiy o‘shish, tadbirkorlik tashabbusi, innovatsiya ruhi, intellektual taraqqiyot va madaniy tiklanishning qudratli markaziga aylangan. Bu shunday zamink, har bir yangi loyiha kelajak poydevorini mustahkamlaydigan tamal toshidir. Bu yerda odamlar orzu qilyapti va o‘z maqsadlariga erishyapti. O‘qiyman, izlanaman, daromad topaman va boshqalarga ham daromad manbai yarataman deganlarga — keng yo‘l. Yangi — Bobur shahri qurilmoqda.

Eski bashoratlarni unutish vaqti keldi. Endilikda, shu jumladan, uch davlat rahbarlarining sa‘y-harakati va do‘stligi tufayli bugun Farg‘ona vodiysi “porox bochkasi” emas, balki imkoniyatlar, farovonlik, tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik va bunyodkorlik makoniga aylandi. Andijon, Farg‘ona va Namanganga kelsak, ular ertangi kunga ishonch va kuchli, adolati davlat rahbarining e‘tibori bilan xalqimiz nimalarga qodir ekanini isbotlamog‘da.”

Yangi bunyod etilayotgan shaharga Zahiriddin Muhammad Bobur nomi berilishi ham Prezidentimizning puxta o‘ylangan siyosati zamidrida islohotlarning bir in‘ikosidir. Bundan tashqari, yangi kent bunday nomlanishi bilan 6 asr ilgari “Andijonim qoldi mening, anda jonim qoldi mening”, deya armon qilgan buyuk bobomizning orzusi bugun Prezidentimiz tashabbusi bilan ro‘yobini topdi.

Hazrat Boburning shon-shuhrati va qadr-qimmatini joyiga qo‘yish, bebaho merosini xalqimizga yanada keng tanitish, butun dunyoga targ‘ib etish hammamizning muhim burchimizdir.

Bugun endi Boburning hech qanday armoni qolmagan bo‘lsa kerak. Dunyoning qaysi yerida, qaysi o‘lkasida bo‘lmasin, bir umr vatan sog‘inchi bilan yashagan ajdodimiz ruhi shu kunlarda shu yerlarga qaytib keldi.

So‘zimizni ayni damda Koreya Respublikasining Kapado orolidagi shogirdim Fozil Farhodning quyidagi yangi misralari bilan yakunlamog‘chiman:

### QAYTISH

**Qancha ulug‘imiz o‘zga ellarda Qolib ketgan, evoh, alamda jonim! Buyuk ishlari-chi, doston tillarda, Nechun sig‘dirmadik, qaynaydi qonim?!**

**Bugun nahot qaytar tarix ortiga, Yaxshilig‘ kutadi, xalq ruhi sobur?! Olti asr o‘tib ota yurtiga Qaytar Zahiriddin Muhammad Bobur!**

19 gektar maydonni egallagan “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida 10 mingdan ortiq daraxt ekilgani, dam olish uchun go‘zal hududlar va madaniy tadbirlar uchun amfiteatr mavjudligi ham ta‘kidlangan.

Pokiston OAV mazkur shaharning eng baland nuqtasida Zahiriddin Muhammad Boburga bag‘ishlangan ulkan haykal o‘rnatilishi, bu uning tug‘ilgan yurtiga ma‘naviy qaytishi ramzi bo‘lishini alohida urg‘ulagan.

“Bobur shahri shunchaki qurilish loyihasi emas, bu o‘tmishga ehtirom va O‘zbekiston hamda Pokiston OAVlaridagi kelajakdagi hamkorlik ruhining ramzidir”, deyilgan maqolada.

Bobur va boburiylar san‘at, she‘riyat, me‘morichilik va davlat boshqaruvida qoldirgan meros Janubiy Osiyo tarixini shakllantirdi. O‘zbekistonning ushbu tashabbusi ikki do‘st xalqlar o‘rtasidagi chuqur madaniy bog‘liqlikni yana bir bor tasdiqladi. Bobur vatanini sog‘inib yashagan edi — ushbu shahar uning yurtiga qaytish ramzi, mustarak tariximiz uzviyligining abadiy yodgorligi bo‘ladi.

Maqolalar O‘zbekiston Prezidentining quyidagi so‘zlari bilan yakunlangan: “Barchamiz bilimimiz, Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoning qayerida, qaysi o‘lkasida bo‘lmasin, bir umr vatan sog‘inchi bilan yashagan. Bugun buyuk ajdodimizning armonlari ushaldi, ul zot o‘z yurtiga ruhan qaytib keldi, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz. Mana shunday ulug‘, tarixiy kun barchamizga muborak bo‘lsin!”

### “Dunyo” AA Islomobod shahri

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING YANGI ANDIJON SHAHARCHASIGA BOBUR NOMINI BERISH TAKLIFI POKISTON YETAKCHI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING DIQQAT MARKAZIDA

O‘zbekistondagi islohotlar, keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari xorij, jumladan, Pokiston jamoatchiligi tomonidan katta qiziqish bilan kuzatib borilmoqda hamda yetakchi ommaviy axborot vositalarida bu jarayonlar to‘g‘risida ko‘plab maqolalar chop etilayotir.


Xususan, O‘zbekiston Prezidentining Andijon viloyatiga safari chog‘ida yangi bunyod etilgan shahar bilan tanishgani, unga Bobur nomini berish tashabbusini bildirgani to‘g‘risida Pokistonning “Associated Press of Pakistan” markaziy axborot agentligi platformasida, shuningdek, mamlakatning yetakchi nashrlari — “Independent News Agency”, “Diplomatic News Agency” va “Media Online Today” axborot agentliklari, “Pakistan in the World”, “The Diplomatic Insight” va “Centrelime” jurnallari, “Islamabad Post”, “The Tribune International” gazetasi, “The Gulf Observer”, “The Europe Today” va “World News” kabi onlayn portallarida turkum maqolalar e‘lon qilindi.

Nashrlarda O‘zbekiston Prezidenti Shaykat Mirziyoyev Andijon viloyatida yangi barpo

etilayotgan shaharga buyuk Boburiylar sulolasiga asos solgan, o‘zbeklar va pokistonliklar uchun birdek qadrlri tarixiy shaxs — Zahiriddin Muhammad Bobur nomi berilishini e‘lon qilgan Markaziy va Janubiy Osiyoning millionlab insonlari qalbida faxr tuyg‘ularini uyg‘otgani ta‘kidlanadi.

“Prezident Shaykat Mirziyoyev buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho merosiga alohida e‘tibor qaradi. Ilm-fan, adabiyot va madaniyatga qo‘shgan beqiyos hissasini ulug‘lash va xotirasini abadiylashtirish maqsadida yangi qurilayotgan shaharni Bobur shahri deb nomlashni taklif qildi”, deyiladi materiallarda.

“Bobur Mirzo Temuriylar Rennessansining munosib vorisi, ilm-fan, madaniyat, san‘at va



adabiyotning homiysi edi. Uning beqiyos merosi xalqimizni butun dunyoga mashhur qildi. Uning nomi bilan ataladigan shahar qurilishi u umr bo‘yi orzu qilgan orzusining timsolidir”, deya O‘zbekiston Prezidenti so‘zlaridan iqtibos keltirilgan nashrlarda.

Pokiston OAV ta‘kidiga ko‘ra, Bobur merosi asrlar davomida tarix, me‘morchilik obidalari va madaniyat orqali yashab kelayotgan Pokiston uchun ushbu voqelik birlik va mustarak merosning yorqin ifodasidir.

Maqolalarda Andijon Bobur tug‘ilgan joy, O‘zbekistonning aholi zich joylashgan hududlaridan biri hisoblanishi, mamlakat aholisining 10 foizi yashovchi ushbu hudud

mamlakat yer maydonining atigi 1 foizini tashkil etishi qayd etilgan.

“Shu bois, 2021-yilda hukumat tomonidan ushbu holatni urbanizatsiya bilan bog‘liq vaziyatni yengillashtirish va zamonaviy turmush sharoitlarini ta‘minlash maqsadida yangi shahar qurish bo‘yicha ulkan loyiha boshlandi. Bu keng ko‘lamli loyiha 4000 gektarli, ilgari foydalanilmagan yerda sakkiz bosqichda amalga oshirilmoqda”, deyiladi maqolalarda.

Bobur nomi bilan ataladigan ushbu kelajak shahri zamonaviy va texnologiya jihatdan rivojlangan, biroq madaniy va ma‘naviy qadriyatlarga chuqur bog‘langan shahar sifatida rejalashtirilgani, uning markazida maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, umumta‘lim maktablari, universitet, muzey, kutubxona va IT parki o‘z ichiga olgan yirik ta‘lim majmuasi joylashishi, shaharda jahon darajasidagi sport inshooti ham barpo etilishiga o‘quvchilarning e‘tibori qaratiladi.

Hozirga qadar 63 ta ko‘p qavatli uy, 1680 o‘quvchiga mo‘ljallangan zamonaviy maktab, bolalar bog‘chasi, tibbiyot markazi, yengil



sanoat korxonasi va turar joy markazi qurib bo‘lingani, yo‘llar, suv ta‘minoti, gaz, elektr va istish tizimlari kabi asosiy infratuzilma to‘liq shakllantirilgani, ichimlik suv bilan ta‘minlash uchun yangi suv ombori va taqsimlash stansiyasi ham ishgah tushirilganiga urg‘u berilgan.

“Shaharni bunyod etish uchun 250 million dollarlik maxsus rivojlanish dasturi tasdiqlangan. Bobur shahri to‘liq qurib bitkazilgach, 410 mingdan ortiq aholiga zamonaviy, ma‘naviy va ma‘rifiy muhitda yashash, o‘qish va o‘z ustida ishlash imkonini taqdim etadi”, deb yozilgan maqolalarda.

Bundan tashqari, atrof-muhit va dam olish hududlariga ham katta e‘tibor qaratilayotgani,



**Sharbat ABDULLAYEVA,**  
iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor

Mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan bank tizimiga va banklarning mijozlar talabiga mos xizmat ko'rsatishi, servis sifati va xilma-xilligiga bog'liq. Prezidentimizning 2020-yil 12-maydagi "2020—2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonida banklarning yangi, jumladan, "raqamli banking" tamoyillariga asoslangan biznes modellari joriy etish, bank xizmatlari ko'rsatishda xalqaro sifat standartlarini qo'llash, kichik va o'rta biznes subyektlariga ko'rsatilayotgan xizmatlarning ko'lamini va sifatini yaxshilash belgilangan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatish orqali banklarning masofadan turib moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish yo'llari ham ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur vazifalardan kelib chiqib, bugun tijorat banklarining mijozlarga zamonaviy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish, ular faoliyatining barqarorligini ta'minlash va resurs bazasini mustahkamlash borasida nafaqat ichki imkoniyatlardan foydalanish, balki xorijiy banklar bilan tizimli ishlash, chet elda roud-shoular o'tkazish, yevrobond chiqarish, bank reytingini yaxshilash va xalqaro standartlarga moslashish kabi masalalar dolzarb ahamiyatga ega vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Darhaqiqat, bu juda to'g'ri maqsad. Chunki mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni bosqichma-bosqich va samarali amalga oshirish, shuncha raqamlashtirishga e'tibor qaratish iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini va lokomotivi bo'lgan bank tizimiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yurtimizdagi iqtisodiy islohotlar, ijobiy



Raqamli iqtisodiyot

# MAHALLA va BANK HAMKORLIGI

## AHOLI MANFAATLARIGA XIZMAT QILADI

o'zgarishlar tijorat banklarining aholi va yuridik shaxslarga ko'rsatadigan xizmatlari soni va sifatini oshirib borishni talab etmoqda. Bu, o'z navbatida, banklarimizga faoliyatini xalqaro bank amaliyoti talablariga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda jarayon va xizmatlarni raqamlashtirish borasidagi ishlar ko'lamini kengaytirish imkonini bermoqda.

Bugun banklar mijozlarga 200 turdan ortiq moliyaviy xizmat ko'rsatayapti. Bank xizmatlari portalida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, kredit bo'yicha xizmatlar 304 ta, omonatlar bo'yicha xizmatlar 217 ta, bankomatlar orqali ko'rsatiladigan xizmatlar 200 dan ortiqligini ko'rish mumkin.

Davlatimiz rahbarining aholi daromadini oshirish maqsadida mahallalar darajasida hokimlarning banklar bilan birga ishlaydigan tizimni shakllantirish to'g'risidagi taklifi mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarda yangi, jahon amaliyotida kam uchraydigan tizimga asos soldi.

Bunday tizimni shakllantirishdan maqsad tuman banklarining mahallalarga ko'proq kirib borishi, aholi bilan yaqinlashishi, mahallalarda yashaydigan odamlar bilan uzviy ishlashi, tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashishini ta'minlashdan iborat. Endi banklar va bank xodimlari aholining ish boshlashida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, muammolarni joyida o'rganish va hal etish imkoniyatiga ega bo'ladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Aholi esa biznes loyihasini muhokama qilish, kredit hujjatlarini tayyorlash, pul olish, ko'chirish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va boshqa masalalar bo'yicha uzoq yo'l bosib banklarga borish, navbatda turish kabi vaqt va mablag' talab qiladigan jarayonlardan qutuladi.

Mahalla — bank tizimining ijobiy jihati shundaki, endi banklar aholi ilgari surgan

iqtisodiy g'oyani loyihaga aylantirishda ko'maklashish va moliyalashtirish vazifasini bajaradi. Tuman hokimlari esa aholining biznes loyihalarini joy va infratuzilma bilan ta'minlash majburiyatini zimmasiga oladi. Bu aniq va manzilli, asosiy to'rt subyekt: mahalla — ijro organi — bank — mijozni o'zida birlashtiradigan tizimdir. Uning samarali yo'lga qo'yilishi bugungi qator ijtimoiy muammolar yechimiga

xizmat qiladi. Aholi uchun yangi ish o'rinlari ochish va ishsizlar bandligini ta'minlashda ijobiy natijaga olib keladi.

Mahallalarda bank xizmatlari ko'rsatilishi bank xodimlarini mahalla aholisi bilan yaqinlashtiradi va hududlarda yashovchi ayollar, yoshlarning iqtisodiy faolligini oshiradi. Ularning g'oyalarini loyihalarga aylantirib, moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'lini topishga yordamlashadi. Aholini kredit olish va qaytarish, biznes ochish,

mahsulotlarini sotishga o'rgatadi, loyihalarga hamrohlik va hamkorlik qiladi.

Bugun bizda aholi bilan iqtisodiy munosabatlarda kuzatiladigan muammoli jihatlardan biri odamlarning moliyaviy savodxonligi pastligidir. Bu sohada hali qiladigan ishimiz ko'p. Chunki aholining barchasi ham bank, moliya, soliq tashkilotlari faoliyati, kredit, qarz, depozit, omonat, shartnoma, lizing, ijara, bitim, kredit shartnomasi, kredit foizi kabi tushunchalar mohiyatini chuqur anglab yetgan emas.

Aholi kredit yoki qarzga olingan mablag'ni shartnomada ko'rsatilgan muddatda qaytarib berish, foydalanganini uchun foiz to'lash kerakligini yaxshi anglashi lozim. Bu boradagi yana bir muhim masala aholining olgan kreditni maqsadli ishlatishi bilan bog'liq. Ba'zi hollarda ayrim yurtodshlarimiz tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida olgan kreditini boshqa ehtiyojlarini qoplashga yo'naltiradi. Natijada kreditni qaytarish, foizlarini to'lashda qiyinchilikka uchraydi yoki qaytara olmaydi.

Bunday holat nafaqat kredit olgan odamning holati, balki tijorat banklari faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklarida vaqtida to'lanmagan yoki muammoli kreditlar salmog'i oshishiga sabab bo'ladi. Muammoli kreditlarning ko'p bo'lishi banklarning moliyaviy ahvoli yomonlashuvi, reytingi va obro'sining tushib ketishiga olib keladi.

Shu bois, mahallalarda bank xizmatlari

ko'rsatilishi, bankir va mahalla aholisi o'rtasida muloqot yo'lga qo'yilishi, fikrimizcha, odamlarning moliyaviy savodxonligi va huquqiy bilimi oshishiga yordam beradi.

Joriy yilda tijorat banklari tomonidan 5,5 trillion so'mlik mikromoliya va faktoring xizmati ko'rsatilishi, davlat ulushi bo'lgan tijorat banklari tomonidan mikromoliya va faktoring kompaniyalari ochilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ularga xorijiy investorlarni jalb etish, kelgusi yilda mikromoliya va faktoring kompaniyalari orqali 10 trillion so'mlik xizmatlar ko'rsatish prognoz qilinmoqda. So'nggi 5 yilda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kredit ulushini 40 foizga yoki 120 trillion so'mga yetkazish choralari ko'rish zarurligi kelajakda mahalla va banklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Banklar va mahallalar o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarida aholiga masofaviy bank xizmatlari mazmun-mohiyati, turlari va imkoniyatlarini tushuntirish ham katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda bank xizmatlari bozorida masofaviy xizmatlar o'rni oshib bormoqda. Bunday xizmatlarning asosiy iste'molchilari mahallalarda istiqomat qiluvchi aholidir.

Bu xizmatlar bank uchun operatsiyalar hajmi kichikligi, korporativ bank xizmatlariga nisbatan xarajat kamligi bilan izohlanasa, aholi uchun qulayligi, tezkorligi va kamxarajat ekani, shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatli.

Bugun yurtodshlarimiz uyida, ishxonasida va boshqa xohlagan joyida turib bemalol bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan masofaviy xizmatlar hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Bunday xizmat ko'rsatish va undan foydalanish nafaqat banklar daromadini oshiradi, balki mahallalar aholisi uchun ham qulayliklar yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning turmush darajasini yaxshilashda juda muhim.

Ayni paytda yurtimizdagi 36 ta tijorat banki, 700 dan ortiq filiali, 1816 dan ko'proq bank xizmatlari markazi, 3750 dan ziyod 24 soat xizmat ko'rsatuvchi bankomat va informkiosk, to'liq onlayn rejimda ishlaydigan ba'zi banklar yuridik va jismoniy shaxslarga masofaviy xizmat ko'rsatib kelaypti.

Keyingi yillarda yurtimizda mijozning uydan chiqmay, bank xizmatlaridan foydalana olishiga katta e'tibor qaratilayapti. Shuning uchun bank xizmatlari sohasida texnologik banklar, onlayn xizmat ko'rsatuvchi banklar, bank xizmatlari markazlari sohasi dolzarb yo'nalishga aylanib bormoqda.

Ayniqsa, hududlarda bazaviy bank xizmatlari to'plamini ko'rsatuvchi va ko'p sonli boshqaruv xodimlarini talab qilmaydigan ixcham bank xizmatlari ofislari tarmog'ini kengaytirgan holda mavjud filiallar tarmog'ini maqbullashtirish, shuningdek, banklarning masofadan turib xizmat ko'rsatishini yanada takomillashtirish mahalla — bank tizimining samarali faoliyatiga zamin yarataypti.



Ochiq va achchiq gap

# DARYONI TINCH QO'YING!

**Kitob tog'laridan boshlangan Qashqadaryo necha ming yillardan buyon vohaga obihayot ulashib keladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, bozorlarimizning obod bo'lishida ham mazkur daryoning o'rni katta.**

**Aslida, mukammal yaralgan tabiatda har bir narsaning o'z o'rni bor. Faqat undan me'yorida foydalansak, hech bir muammo tug'ilmaydi. Aksincha, nafs balosiga erk berib, me'yorni unutishimiz natijasida tabiat muvozanati buziladi. Oqibatda qurg'oqchiliklaru boshqa ofatlar ro'y berishiga sababchi bo'lamiz. Jabrini baribir insonlar ko'radi.**

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 17-yanvardagi "Suv havzalarda noruda materiallarni qazib olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, 2024-yil 1-maydan boshlab Chirchiq, Sirdaryo, Sangzor, Zarafshon, Norin, Surxondaryo qatori Qashqadaryo daryosi o'zanlaridagi noruda materiallarni qazib olishga muddatsiz moratoriy joriy qilindi. Xo'sh, ayni paytda vohaning bosh daryosi o'zanlarida ahvol qanday? Moratoriy natijasida holat ancha yaxshilanganmi? Shu xususda o'rganishlar o'tkazdik.

Bugun Qamashi tumani markazidan Qarshi shahriga yo'lga chiqqan kishi qum-shag'al ortilgan katta yul mashinalari viloyat markazi tomon borayotganini kuzatishi tabiiy hol.

E'tiborini Qashqadaryoning Qamashi tumani To'g'boy qishlog'i yaqinidagi o'zani holatiga qaratishdan boshladik. Boisi, aynan shu o'zandan olingan qum qurilish bozorida yaxshilagina nom qozongan.

Qishloq hududida yengil mashinada qirg'oq bo'ylab harakatlanarkanmiz, birozdan so'ng yurishga imkon qolmadi. Chunki yul mashinalari og'ir yuk bilan yuraverib, yo'lni abgor qilib tashlagandi. Bu yog'iga piyoda yurishga to'g'ri keldi. Bir kilometrden ko'proq yurmasimizdan qum ortilgan "Kamaz" ro'paramizdan kelib qoldi. Qo'limizdagi suratga olish moslamasi borligini ko'rib to'xtadi. Bu hududlardan qum

olish taqiqlanganini, nega shunga qaramay, qum ortib kelayotganini so'radik.

— Hovlimizga qum kerak bo'lib qolgandi. O'zim shu yaqindagi qishloqda yashayman, — deydi o'zini Fazliddin deya tanishtirgan haydovchi yigit. — Qum olish taqiqlanganini bilaman. Ammo zarurligi uchun olgandim. Agar ishonmasangiz, birga yuring.

— Fazliddin, qumni qanday yukladigiz?

— Huv narida (bizga ko'rinmay turgan, o'zi kelgan tomonni ko'rsatib) yuklovchi texnika bor. Shu ortib berdi, — deydi u. — Hozir ham ishlayapti.

Demak, haydovchining bemalol harakatiga ko'ra, ular hech nimadan xavotirlanmay, doimgidek o'zandan qum ortish bilan mashg'ul bo'lmoqda. Biz qum yuklovchi mashinani izlab, yo'lda davom etdik.

— Endi birorta yuk mashinasini ham, yuklovchisini ham topolmaymiz, — deydi menda hamrohlik qilayotgan, shu yaqindagi qishloqlardan birida yashovchi oqsoqol Sayfulla ota. — Sababi anavi biz gaplashgan haydovchi yigit shu zahoti xabar berdi. Odatda bu atrofda biror begona kishi keladigan bo'lsa, hammasi tinchib qoladi. Bularning telegram guruhi bo'lsa kerak. Birdan barchasi o'zini panaga oladi.

Ozroq yurganimizdan so'ng daryo o'zanlarining turli joylari kovlab tashlangan manzaralarga duch kela boshladik. Rosti, bu atrofda biror buzilmagan joy qolmagandi. Ayrim

joylar ancha chuqur kovlangan. Qum olingan pastliklarga chiqindi tashlab ketilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentabrdagi "Noruda materiallarni qazib olishga moratoriy joriy etilgan suv havzalari hududlarining chegaralarini belgilash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, moratoriy joriy etilgan hududlarning chegaralari aniq ko'rsatilgan. Qashqadaryoning Kitob tumani "Anozor" MFY Varganza qishlog'ida Qashqadaryo va Jinnidaryo kesishgan nuqtasidan boshlab Qamashi tumaniyidagi Chimqo'rg'on suv omborigacha 53 kilometr qismi hamda Chimqo'rg'on suv omboridan Qarshi tumani "Ko'chkak" MFYdagi Qarshi magistral kanali dyukerigacha bo'lgan 49 kilometrlik qismi, jami 102 kilometrlik masofasi shunday hududga kirgan. Biz ko'zdan kechirayotgan joy aynan Chimqo'rg'on suv omboridan keyingi 49 kilometr masofa ichidagi hudud edi.

— O'tgan yili moratoriy e'lon qilingach, endi daryoni tinch qo'yish deb o'ylagandik, — deydi Sayfulla ota. — Birinchi maydan moratoriy boshlanishini eshitgan haydovchilar, ishonasizmi, aprel oyida tinim bilmadim. Kechayu kunduz qum tashidi. Ko'pchiligi boshqa joylarga olib borib, xironon qilib oldi. Nihoyat kutilgan vaqt keldi. Ishonasizmi, adashmasam, birinchi maydan o'n beshinchi mayga qadar shunchalar sokin bo'lib qoldi. Hech bir kishi daryoga yaqinlashmadi. Shu paytda daryo ham orom

olgan bo'lsa, ajabmas. Biror texnika kirmadi hududga. Bo'ron oldidagi sukunat kabi bo'ldi. Endi tinch qo'yishar, degan umidda xotirjam bo'lgandik. Afsuski, nafs balosi baribir ustunlik qildi. Yoki biror narsani kutib turishgan ekanmi, shundan so'ng yana battar avjiga chiqishdi. Oldin kunduzi ishlagan bo'lsa, endi kechasi ishlaydigan bo'lishdi. Qani to'xtashsa edi.

Suhbat bilan ancha yo'l bosib o'tilgach,

**“Ortga qaytib, mashinada ko'prik orqali aylanib boradigan bo'ldik. Shu orada Qamashi tumani ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi mutasaddilarini ham holat bo'yicha ogohlantirib qo'ydik. Ortimizga qaytib, narigi tarafa borgunimizga qadar bir soatdan ko'p vaqt ketdi. Lekin shuncha paytdan keyingina ekologiya sohasi mutasaddilari yetib kelgan ekan. Afsuski, oldinroq shu hududda ishlab turgan traktordan ham, yigitlardan ham darak yo'q edi.**

hozirgina qum kovlab olingan joy ustidan chiqdik. Ammo, hamrohim aytganidek, yuklovchi mashina allaqachon jufakni rostlab qolgandi. Bundan tashqari, boshqa yuk mashinalari ham bo'lgan va ular endi yo'q edi. Daryoning narigi qirg'og'ida esa bitta "Kamaz"ga uch-to'rt yigit belkurak bilan bemalol qum ortardi. Sal narida yuklovchi traktor o'z ishi bilan band. U tarfaga o'tishning esa imkoniyati yo'q. Oqsoqolning ta'kidlashicha, u tomon G'ishtli qishlog'iga qarashli.

“G'ishtli” MFY hududidan xuddi shunday — ijara yeri olib ishlayotgan fuqaro bilan suhbatlashdik.

— O'n yil muddatga shu yerdan 2 gektar, sal naridan 3 gektardan ziyod, jami 5 gektardan ko'proq joy olganmiz, — deydi Eldor Toshmurodov. — Bu yerga daraxt ekishni maqsad qilganmiz. Hozir joy tayyorlash bilan bandmiz. Bir oz oldin traktor ishlayotgandi. Tez orada 150 dona ko'chat ekish niyatidamiz. Nasib bo'lsa, tez orada yashil makon bo'ladi bu joy.

— Bu yerdagi qumni qayerga chiqarib tashladigiz? — deya so'radim kattagina maydonga ishora qilib.

— Oldin olingan bo'lsa kerak. Biz bu joydan umuman qum olganimiz yo'q. Boshqalarning ham olishiga yo'l qo'yamaymiz.

— Bundan chamasi bir soatlar oldin “Kamaz”da qum ortib chiqib ketishdi-ku.

— Bilmadim. Uni shu yaqin atrofdagi yigitlar qo'lda ortgan bo'lsa kerak. Ishsiz kishilar to'rt-besh so'm pul topish ilinjida qilgandir-da.

Qiziq, shundoqqina daryo qirg'og'ida qum olinaverganidan kattagina maydon hosil qilindi-yu, bu kishining xabari bo'lmasa. Bundan tashqari, qumlik joyga qanday qilib daraxt ekish imkonligiga hayron qolmay iloj yo'q. Achinarlisi, ko'chat ekish mavsumi yakuniga yetayotgan bo'lishiga qaramay, hali bir dona ham nihol ekilmagan.

Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi xodimi To'ziyov Murodovning ta'kidlashicha, 2024-yil dekabrda Qashqadaryo daryosi boshqarma tizimiga o'tkazilgan. Shundan so'ng fuqarolarga, tadbirkorlarga yashil makon qilish uchun daryo qirg'og'idan muayyan muddatga joy ijara berilmoqda. Joriy yilning o'zida 51 ta fuqaroga jami 95 gektar maydon shartnoma asosida foydalanishga berilgan. Muhimi, shartnoma shartlarida daryoga zarar emas, aksincha, foydasi tegadigan ish qilinishi belgilangan. Ajablanarlisi, olingan yerning bir sotixi uchun har yili 45 ming so'm, bir gektari uchun 4 million besh yuz ming so'm to'lanishi lozim. Yillariga 45 gektar yer ijara olgan bo'lsa, yilga 22 million 500 ming so'm to'lashi kerak. Hali bir dona ham nihol ekilmagan maydondan qanday foyda ko'radi-yu, qachon bu mablag'ni o'tkazib beradi? Yana bir jihati, yashil makon qilib, qanday mablag' ishlab toparkan? Qolaversa, yuqoridagi aytilgan 95 gektar maydonning hammasi ham shartnomada belgilanganidek ishlayotganmikan yoki hudud egallab olinib, faqat qum sotilayotganmikan? Bunga esa tayinli javob olish mushkul.

Yana bir gap. Oldin aynan qum-shag'al sotish bilan qunoniy tartibda ishlagan, o'zini tanishtirishni istamagan tadbirkorning so'zlariga ko'ra, holat oldingidan ancha yomonlashgan. Ya'ni moratoriy e'lon qilinishi natijasida bu yerda bir mashina qumning narxi ham, ortib berish narxi ham qimmatlashgan. Bu esa qurilish bozorida sezilgan.

Mutaxassislar fikricha, daryo o'zanidan o'zboshimchalik bilan foydalanish ertaga suv sathi pastlashishiga, daryoning qurib qolishiga olib keladi. Bir so'z bilan aytganda, tabiat muvozanati buzilishiga sabab bo'ladi.

Mavzu bo'yicha mutasaddilardagi befarq bo'lmaydi degan umiddamiz. Biz esa ogohlilik qo'ng'irog'ini chalishdan to'xtamaymiz.

**Akbar RAHMONOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

**Yoshlarga bozor munosabatlarini tushuntirish, mustaqil iqtisodiy qarorlar qabul qilishni, moliyani to‘g‘ri boshqarishni, tadbirkorlik salohiyatini oshirishni o‘rgatish va bu orqali raqobatbardosh hamda tashabbuskor shaxsni tarbiyalash bugungi ta‘lim-tarbiya tizimidagi eng dolzarb vazifalardan biridir.**

Yurtimizda o‘tgan sakkiz yilda yosh tadbirkorlar soni 3 karra ko‘payib, jami biznes vakillarining salkam 40 foizini tashkil etayotir. Ishsiz yoshlar 2 karra kamaydi. Ishsizlikdan xoli mahallalar soni salkam 1900 taga yetdi. O‘tgan yili “Yoshlar daftari” orqali 180 ming yoshga 345 milliard so‘mlik yordam ko‘rsatildi.

Ilgari institut va universitetlarda bitta o‘rin uchun kamida 10-15 abituriyent kurashardi. Qisqa davrda oliyog‘hlar soni 3 barobar ko‘payib, oliy ta‘limdagi qamrov 42 foizga yetdi. Xotin-qizlarga shartnoma to‘lovi davlat tomonidan qoplab berilayotgani hisobiga ularning soni 11 karra oshdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishbilarmon va tadbirkorlarga katta talablar ko‘yilmoqda. Chunki mavjud imkoniyatlardan to‘la foydalanish uchun iqtisodchi, avvalo, iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini, bozor iqtisodiyoti jarayonlari tahlilini yaxshi bilishi, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarga olishi kerak.

Iqtisodiy tarbiya insoniyatning ming yillik o‘tmishi jarayonida shakllanib kelgan. U o‘zining ma‘naviy-xalqoqiy zaminlariga ega.

Qadimda Buyuk ipak yo‘li nomi bilan mashhur bo‘lgan karvon yo‘li Xitoyni Markaziy Osiyo, Yevropa bilan bog‘lab, O‘rta yer dengiziga olib chiqar edi. Bu yo‘l atrofidagi barcha mamlakatlar o‘zaro savdo-sotiq orqali u yoki bu tovarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirgan.

Yo‘llardagi karvonsaroylar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan va xizmat ko‘rsatuvchi majmua vazifasini bajargan. Ularda mehmonxona, sartaroshxona, oshxona kabi xizmat ko‘rsatish tizimlari tashkil etilgan, tovar ayiriboshlash, sotish bilan bog‘liq bitimlar tuzilgan. Bu esa iqtisodiy tarbiya tushunchasini ko‘proq va to‘laroq o‘zlashtirish imkonini bergan.


Shaxsning jamiyat manfaatlarini ko‘zlab tejamkorlik qilishi, xalq farovonligini oshirishga intilishi uchun iqtisodiy tarbiya yuksakligi belgisi hisoblanadi. Zero, iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalar har bir mutaxassis, tadbirkor, tijoratchi, ilmiy xodim, pedagog, shifokor, muhandis va boshqalarning amaliy faoliyatida muhim ahamiyatga ega ekanini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Har bir xalqning rivojlanish qonuni ularning iqtisodiy madaniyati yuksalishi bilan belgilanadi. Qadimgi dunyo olimlari Ksenofont, Platon, Arastu ilk bor iqtisodiy jarayonlarni, iqtisodiyot va tarbiyaga oid tushunchalarni o‘rgangan hamda ular o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini isbotlagan.

Markaziy Osiyoda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan buyuk olimlardan biri Abu Rayhon Beruniydir. U birinchilardan bo‘lib pulning kelib chiqishini, ahamiyatini tadqiq qilgan. Beruniy pulning o‘rmini sarflangan mehnat va ishlab chiqarilgan mahsulot o‘rtasidagi nisbatni belgilashda ko‘rgan.

XVI-XVII asrlarda iqtisodiyot mustaqil fan sifatida qaror topdi. Ishlab chiqarish taraqqiyoti, ko‘lamlari o‘sishi, xo‘jalik yurituvchilar o‘rtasida iqtisodiy aloqa murakkablashuvi, mahalliy, milliy, xalqaro bozorlar vujudga kelishi keng iqtisodiy bilimga ega bo‘lishni taqozo etdi.

Jamiyatda iqtisodiyot odobi insonning iqtisodiy dunyoqarashi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. U qanchalik qoloq bo‘lsa,





Kun mavzusi

“

**IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA BOLANING XULQ-ATVORI KATTA O‘RIN EGALLAYDI. XULQ-ATVOR, AXLOQ MADANIYATNING MUHIM QISMI BO‘LIB, U TARTIB-INTIZOMDA, HAYOT ME‘YORLARIDA, JAMIYATGA, MEHNATGA, ODAMLAR BILAN BAJARILADIGAN IQTISODIY MUNOSABATLARDA AKS ETADI.**

”



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



# IQTISODIY TARBIYA SHIDDATLI DAVRDA uning ahamiyati JUDA MUHIM

ehtiyojlar doirasi tor, rivojlangan bo‘lsa, ehtiyojlar doirasi kengayib, xilma-xil bo‘lib boradi. Shu bois, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar kishilarning yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, kasbi, mehnati kabi omillarga bog‘liq. Ehtiyojlarga kuchli ta‘sir etuvchi omil — inson mehnatining xarakteri. Masalan, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat qiluvchilarning ehtiyojlari har xil bo‘ladi. Albatta, bu jihatlarni o‘zlashtirmay turib, iqtisodiy odob tushunchasi to‘liq o‘rganildi deb bo‘lmaydi.

birinchi iqtisodchi bo‘ldi. U siyosiy iqtisodga alohida e‘tibor qaratgan va uning muhim xususiyatlarini sharhlab bergan.

“Etika” kitobida oqilona egoizm konsepsiyasini rivojlantirdi. Bu konsepsiyaga ko‘ra, kishilar ko‘proq mol-dunyo orttirishga, shuhratparastlikka va manfaatlari yo‘lida xarajat qilishga moyil.

Eron shohi Kaykovus o‘g‘li Gilonshohga yozgan nasihatnomasi, ya‘ni “Qobusnoma”da o‘sib kelayotgan yosh avlodni iqtisodiy

tarbiyasi nuqtayi nazaridan yo‘naltirishga qaratilgan. Bu jihat maktabda va boshqa ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayoni mukammallashishiga olib keladi.

Iqtisodiy ta‘lim-tarbiya turlari, uning jamiyat hayotiga chambarchas bog‘liqligi bizni bu jarayon bilan yoshlarni yaqindan tanishtirishga, ularning iqtisodiy bilimlarini oshirishga undaydi. Iqtisodiy tarbiyaning asosiy kategoriyalari iqtisodiy qonunchilikka asoslangan.

Zamonaviy iqtisodiyot mulkka egalikning turli shakllari birligidir. Bulaming har biri mamlakat taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shuning uchun ishlab chiqaruvchilar, u xoh davlat korxonasi, xoh xususiy tadbirkor bo‘lsin, o‘zi ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatini yanada oshirishga harakat qilishi zarur. Ishlab chiqaruvchining shaxsiy manfaatlari davlat manfaatlari bilan to‘qnashmasdan, ular davlat iqtisodiyotining bir bo‘lagi bo‘lishi lozim. Inson o‘zi uchun ishlaganda ham davlat va xalqqa foydasi tegishi kerak.

“

**Ayni paytda pedagogika fani yoshlarda iqtisodiy bilimlarning yangi yo‘nalishda shakllanishi ustida izlanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar mehnat tarbiyasini turli aspektlarda tahlil etish va ularni yoshlarning iqtisodiy tarbiyasi nuqtayi nazaridan yo‘naltirishga qaratilgan. Bu jihat maktabda va boshqa ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayoni mukammallashishiga olib keladi.**

”

Iqtisodiyot mexanizmini boshqarishni takomillashtirish aksariyat hollarda iqtisodiy dunyoqarashning ommaviy ravishda o‘zlashiga bog‘liq. Kishilar mamlakat iqtisodiy hayotida qanchalik ko‘proq ishtirok etsa, bu jarayon shunchalik takomillashib boradi.

Ushbu fan o‘qituvchilari iqtisodiy siyosatni, jamiyat qonunlari va qonunchiligini, xo‘jalik ishlarining tamoyillari va uslublarini, iqtisodiyot nazariyasini, shuningdek, o‘quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash metodikasini chuqur o‘rganishi shart.

Iqtisodiy tafakkur insonning shaxsiy hayotini, kishilar bilan munosabatini, xulq-atvorini qamrab oladi, o‘smirni esa hayotga boshqacha ko‘z bilan qarashga, ijtimoiy munosabatlari bilan yaqindan tanishishga undaydi.

Yoshlarda iqtisodiy tarbiyaning pedagogik jarayoni quyidagi sifat bosqichlariga ega bo‘lishi lozim:

- davlatning iqtisodiy ahvolini yaxshi bilish;



**G‘ofur ABDILAKIMOV, Nizomiy nomidagi TDPU professori**

- turli mulk turlari va korxonalar faoliyatining iqtisodiy asoslarini bilish;
  - dalillarni xolis baholash va mavjud iqtisodiy asoslarni tahlil etish uchun iqtisodiy savodxon bo‘lish;
  - ishlab chiqarish va xo‘jalik ishlarida, iqtisodiy munosabatlarda tashabbuskorlik.
- Iqtisodiy tarbiyaning bosh vazifalaridan biri yoshlar iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishi uchun ularning potensial imkoniyatlarini oshirish va bunga tayyorlash hisoblanadi. Bu ishga tayyorgarlik murakkab ta‘lim tizimini tashkil etib, iqtisodiy talab va taklif, iqtisodiy umumta‘lim tayyorgarligi, vaqtga, mehnat va tabiiy zaxiralarga ongli ravishda munosabatda bo‘lish kabi tarkibiy qismlardan iborat.
- Yoshlar o‘z ehtiyojini ota-onalarining mehnati, turli jamg‘arma va tashkilotlar, albatta, kam bo‘lsa ham o‘z mehnati evaziga qondiradi.
- Mustaqillik tufayli farzandlarimiz dunyoviy bilimlar bilan birga ulug‘ bobolarimiz Imom Buxoriy hadislarini Naqshband ta‘limoti, At-Termiziy o‘g‘itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya olish imkoniga ega bo‘ldi.
- Shuningdek, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur kabi aql-zakovat sohiblarining ijtimoiy-siyosiy faoliyati ham har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vosita vazifasini bajarmoqda.

Forobiy va Ibn Sinoning iqtisodiy merosi markazida inson va uning ehtiyojlarini qondirish masalasi turadi. Zero, inson dunyoning oliy ne‘mati va uning ehtiyojlarini qondirish har qanday jamiyatning yashash va rivojlanish shartidir. Inson ehtiyojini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma‘naviy jihatdan guruhlarga ajratish mumkin. Ushbu ehtiyojlar ichida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish ustuvor hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya tuzilishi, asosan, o‘zaro munosabat faoliyatidan tashkil topgan. Faoliyat insonning o‘zini o‘rab turgan dunyoga munosabati, o‘ziga xos xususiyatlari, bir maqsadga qaratilgan hayot mazmunidagi o‘zgarishlar, tuzatishlar kabilarini tashkil etadi. Inson faoliyatining asosiy turi mehnat bo‘lib, u ma‘naviy va jismoniy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Mehnat insonning muloqot, o‘qish va iqtisodiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Mehnat asosida shaxsning iqtisodiy tarbiyasi rivojlanadi, aqliy va axloqiy kamoloti ro‘yobga chiqadi.

Faoliyat mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari o‘zgarib turishi natijasida har bir insonning iqtisodiy ongi, iqtisodiy madaniyati takomillashib boradi. Demak, iqtisodiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish natijasida o‘quvchi faolligiga, ish rejalarini aniq bo‘lishiga erishish mumkin.

Bunda har bir yosh avlodning o‘ziga xos iqtisodiy faoliyatini shakllantirish, rahbarlik va nazorat qilish o‘qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki buning natijasida yoshlarda mustaqillik, halollik va intizomlilik kabi sifatlar shakllanadi. O‘z jamoasiga iqtisodiy munosabatlarda bo‘ladigan kishilarga hurmati oshadi.

Turli ish jarayoni va faoliyatlarda shaxsning xulq-atvori shakllanadi va rivojlanadi. Shunday ekan, o‘qituvchining iqtisodiy faoliyati lozim bo‘lgan ishini ko‘rsatish va tushuntirishdan, vazifalar va talablar qo‘yishdan, tekshirish va tuzatishdan, bajarilgan yoki bajarilmagan ishlar uchun rag‘batlantirish va jazolashdan iborat.

Bir narsa aniqki, iqtisodiy tarbiya va bilim orqali bola iqtisodiy madaniyatga erishadi. Hayotda, tajribada bilimli va bilimsizning iqtisodiy tarbiyasi barobar emasligini ko‘p uchratish mumkin. Bola iqtisodiy munosabatlarda qancha qiynalsa, iqtisodiy bilimlarni shuncha ko‘p egallaydi. Bu holat o‘quvchining yosh xususiyatiga ham bog‘liq.

Shunday ekan, har bir dars jarayonida yoshlar tomonidan egallangan iqtisodiy bilim, qarashlar iqtisodiy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Bu o‘qituvchining bilim saviyasiga, pedagogik mahoratiga, o‘z kasbini va bolani qanchalik yaxshi ko‘rishiga bog‘liq. Yoshlarning dars jarayonida olgan iqtisodiy bilimlari ularning tushunishida, odamlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatida ko‘rinadi.

Iqtisodiy tarbiya bilish, shi qilish, tushunish, tasavvur qilish kabi inson faoliyatidagi turli-tuman jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs faolligini oshiradi. Yoshlarning iqtisodiy his-uyus‘ularini tarbiyalashda sog‘lom muhit, zavqli vaziyatni vujudga keltirish muhim ahamiyatga ega. Chunki ana shunday sharoitda yoshlarda odamiylik, xayrixohlik, halollik va poklik, tejamkorlik kabi fazilatlar namoyon bo‘ladi.

Mustasab aytganda, iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda bolaning xulq-atvori katta o‘rin egallaydi. Xulq-atvor, axloq madaniyatning muhim qismi bo‘lib, u tartib-intizomda, hayot me‘yorlarida, jamiyatga, mehnatga, odamlar bilan bajariladigan iqtisodiy munosabatlarda aks etadi.

## Sog‘lom turmush tarzi

**Shoniyoz QURBONOV, biologiya fanlari doktori, professor**

**Ovqatlanish madaniyati — insonning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan munosabatini belgilaydigan ongli qarashlar, idroklar, bilimlar tizimi. Bu haqdagi bilimlar to‘g‘ri ovqatlanish asoslarini, mahsulotlarning xususiyatlarini va organizmga ta‘sirini, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilish madaniyatini va ovqatga iqtisodiy munosabatni bilishni o‘z ichiga oladi.**



Hozirgi paytda to‘g‘ri, sog‘lom yoki ratsional ovqatlanish tushunchalari hayotimizga tobora chuqurroq singib bormoqda. Bu hol ovqatlanish, taomlanish bilan bog‘liq sa‘y-harakatlar kundan kunga yaxshilanib, kengayib borayotganidan darak.

Bir paytlar ovqatlanish deyilsa, asosan, och qolmaslik uchun taom topib yeyish tushunilgan. Bugungi kunga kelib, turli taomlar mo‘l-ko‘l bo‘lib, ovqatlanish kishilar xohish-

istagidagi ehtiyojga aylanib qoldi. Taom turlari, oziq-ovqat mahsulotlari, har xil pishiriqchilar, shirinliklar sotuvda shunchalik ko‘payib ketdiki, zamondoshlarimiz bundan 70-80 yil oldin oziq-ovqat borasida bunday seroblikni xayoliga ham keltirmas edi.

Lekin biz mo‘l-ko‘lchilikdan to‘g‘ri foydalanyapmizmi? Sog‘lom ovqatlanish qoidalariga qay darajada e‘tibor qaratyapmiz? Ko‘cha-ko‘yda, oziq-ovqat do‘konlarida,

# KASALLIKLAR YASHARIB, TEZ RIVOJLANIB BORMOQDA BUNDA FAST-FUDLARNING ZARARI QANCHALIK SEZILADI?

“

**1958-yili amerikalik olimlar bunday transyog‘larning tanada to‘planib, og‘ir patologik holatlarga olib kelishini, masalan, saraton hosil bo‘lishi mumkinligini aniqladi. Shu bois, hozir Daniya, Avstriya, Shvetsiya, Islandiya, Norvegiya kabi davlatlarda qayd qilingan yo‘llar bilan tayyorlanadigan transyog‘larning oziq-ovqat sanoatida ishlatilishi taqiqlangan.**

”

bozorlarda, restoranu kafelarda, oshxona va choyxonalarda tez tayyorlanadigan taomlar, zamonaviy tilda aytganda, fast-fudlar juda ko‘payib, ko‘randalar (ayniqsa, yoshlarning e‘tiborini tortmoqda. Ular kundalik ovqatlanish ratsioniga kirmoqda.

Fast-fudlar sirasiga hamburger, sendvich, xot-dog, korndog, pissa, shaurma, donar kabob, buritto, frit, chips kabilar kiradi. Tez tayyorlanadigan yeguliklar xo‘randalarga ham ma‘qul keladi, chunki ularning vaqti juda tig‘iz, ko‘pchiligi oyoqda turib yoki yo‘l-yo‘lakay, ish vaqtida ham ovqatlanib ketaveradi.

Bunday taomlanishdan, umuman olganda, sotuvchi ham, xaridor ham xursand. Sotuvchi o‘z molini tez qayt olursa, iste‘molchi o‘zina vaqt ichida ovqatlanib olishdan mamnun. Barcha fast-fudlar bir-biriga o‘xshash mahsulotlardan tayyorlanib, ularning kimyoviy tarkibi inson organizmni asosiy va qo‘shimcha oziq moddalar

bilan kerakli darajada ta‘minlay olmaydi. Shuning uchun fast-fudni sog‘lom ovqatlanish nuqtayi nazaridan zamondoshlarimizning taqvoli deb aytish qiyin. Qolaversa, o‘tkazilgan tadqiqotlar, kuzatuvlarga ko‘ra, ular tufayli oshqozon-ichak, asab, yurak-qon tomir va boshqa ko‘p kasalliklar avj olib ketmoqda. Shuning uchun zamonaviy taomlar bo‘lmish fast-fud faqat savdo tizimi ishini, foydasini rivojlantirib, shihat-salomatni, sog‘lom, to‘g‘ri yoki ratsional ovqatlanish talablariga ko‘p hollarda zig keladi.

Birinchidan, fast-fudlar tarkibiga ko‘ra yuqori miqdordagi uglevodlarga yoki mahsulot bo‘lib, ularning oqsil va yog‘lar odatdagi me‘yor ko‘rsatkichlaridan keskin farq qiladi. Bunday tarzda ovqatlanish ko‘p hollarda tana vazni oshib borishiga olib keladi. Shuning uchun ham doim fast-fud bilan taomlanadigan odamlar orasida tanada yog‘ to‘planish alomatlari, ayrim

a‘zolar, masalan, jigar, buyrakni yog‘ bosishi, qonda xolesterin ko‘payishi va boshqa salbiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Gap shundaki, fast-fudlardagi uglevodlar tez hazm bo‘ladigan shakardan iborat bo‘lib, ular ichaklarda kerakli vaqt saqlanmasdan tez orada qonga o‘tib ketadi. Bunga nafaqat fast-fudlardagi uglevodlar, balki sotuvdagi barcha shirinliklar (konfeler, shokoladlar, pishiriqlar...) kiradi. Bunday shirinliklar hammaga, ayniqsa, yosh bolalar, ko‘cha-ko‘yda taomlanadigan talaba yoshlarga juda yoqadi. Shu bois, ularning bozori chaqon.

Biroq bu tartibda taomlanishi sog‘lom ovqatlanish talablariga qay darajada javob berishini o‘ylab ko‘rish vaqti keldi. O‘rtiqcha vazn tanada oddiy uglevodlar ko‘payishi tufayli qator kasalliklar (qandli diabet, ateroskleroz, yurak-qon tomir, jigar, oshqozon-ichak va asab kasalliklari va hokazo)ning yuzaga kelishida alohida o‘rin tushmoqda.

Ikkinchidan, fast-fudlar asosan trans-yog‘lardan tayyorlanadi, ular margarini gidrogenizatsiya qilish (qayta ishlash) natijasida olinadi. So‘ngra bunday yog‘ tovaqa qayta qizdirilib, bir necha marta fast-fud tayyorlanadi. Yog‘ qayta-qayta ishlatilishi natijasida tarkibini o‘zgartirib, salbiy ta‘sirini yanada ko‘payib boradi. Iste‘molchiga esa masalaning bu tomoni uncha ma‘lum emas, u faqat sotuvchi uchun har tomonlama qo‘l keladi, xolos.

Bunda yuqori harorat va bosim ostida suyuq o‘simlik yog‘lari vodorod pufakchalari bilan boyitiladi va shu yo‘l bilan to‘yinmagan yog‘ kislotalari olinadi. Bunday yog‘ molekullari hujayra membranasidagi foydali yog‘ kislotalarini surib chiqaradi va me‘yoriy moddalar almashinuvini buzadi.

1958-yili amerikalik olimlar bunday transyog‘larning tanada to‘planib, og‘ir patologik holatlarga olib kelishini, masalan, saraton hosil bo‘lishi mumkinligini aniqladi. Shu bois, hozir Daniya, Avstriya, Shvetsiya, Islandiya, Norvegiya kabi davlatlarda qayd qilingan yo‘llar bilan tayyorlanadigan transyog‘larning oziq-ovqat sanoatida ishlatilishi taqiqlangan.

Uchinchidan, fast-fud uchun ishlatiladigan yog‘ ko‘p hollarda jigarda yog‘ to‘planishiga olib keladi. Janubiy Kaliforniya universiteti olimlarining aniqlashicha, agar odam kun davomida ovqat bilan oladigan umumiy energiyaning 20 foizini fast-fud hisobidan

amalg oshirsa, uning jigarida yog‘ to‘planish boshlanadi. Bunga bitta katta gamburgni iste‘mol qilish yetarli. Ko‘p hollarda gamburger shirin gazli ichimliklar bilan iste‘mol qilinadi. Ushbu hol, o‘z navbatida, salomatlikni yanada yomonlashtiradi.

To‘rtinchidan, aytib o‘tilgan salbiy holatlar, ayniqsa, o‘quvchi yoshlar uchun xavfli. Hozir nafaqat shaharlar, balki ko‘plab qishloq maktablarida ham o‘quvchilarning fast-fudga qiziqishi juda kuchli, ular uchun yegulik mazali, yuqorida qayd etilgan ichimliklar bo‘lsa, bas. Eng yomoni, ular tarkibidagi tez hazm bo‘ladigan uglevodlar qisqa vaqt davomida organizmni to‘q saqlaydi, ko‘pi bilan 1,5-2 soatdan keyin xo‘randaning ishtahasi yana ochiladi. Chunki fast-fud tarkibida oziq tolalari (kletchatka, sellulyoza) juda kam yoki umuman bo‘lmaydi. Shuning uchun ular oshqozon-ichak tizimida tez so‘rilib ketadi, odam tez och qoladi.

Bu tarzda ovqatlanish o‘ta zararli ekanini maktab o‘qituvchilari doimiy targ‘ibot qilib borishi foydadan xoli emas.

Beshinchidan, fast-fud taomlar tarkibida oqsil moddalar, ayniqsa, biologik to‘la qiymatli oqsillar kam bo‘lib, ular bilan doimiy oziqlanish me‘yor talablariga mos kelmaydi. Ayniqsa, bunga o‘quvchi yoshlar e‘tibor berishi kerak. Chunki ular organizmni intensiv o‘sish va ulg‘ayish jarayonida bo‘lib, aytilgan oqsillar doimiy kerak. Fast-fuddagi oqsillar yosh organizm talabiga umuman javob bermaydi. Ular tarkibidagi oqsil aksariyat hollarda biologik to‘la qiymatsiz sanalib, o‘sayotgan organizm uchun yangi to‘qima hujayralari tiklanishiga yaramaydi. Natijada fast-fud yeydiganlar tanasida bunday taqchillik doim mavjud bo‘ladi.

Bundan tashqari, qo‘shimcha oziq moddalar, ya‘ni vitaminlar va ko‘plab ma‘danli moddalar o‘sish va rivojlanish uchun har doim kerak. Bular asosan barra o‘simliklar — shivit, ko‘kpiyoz, kashnich kabilarida serob bo‘ladi. Yillar davomida fast-fudli taomlar iste‘mol qilishning sihat-salomatlikka salbiy ta‘sir maxsus tekshiruvlar natijasida aniqlangan.

Insonga umir har kimga o‘ta qo‘lida. Sog‘lom ovqatlanib, sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashasak, turli kasalliklardan himoyada bo‘lamiz.

